

UO'T: 632.7.72.727.

**JANUBIY OROL QUM SAKSOVULZORLARDA UCHRAYDIGAN
QO'NG'IZ TURLARINI O'RGANISH**

Menlimuratova S.J.

I-bosqich doktoranti

Shamuratova N.G.

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali

Ilmiy rahbar q.x.f.d., professor Shamuratova Nagima Genjemuratovna

«O'simliklarni himoya qilish va karantini» kafedra mudiri

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15644293>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Orol dengizi qurishi nafaqat mintaqamiz, balki global darajadagi ekologik ofat markaziga aylangan bo'lib, inson faoliyatining salbiy tasiri natijasida atrof muhitda sezilarli darajada o'zgarishlar ro'y bermoqda. Iqlim o'zgarishlari oqibatida, turli hildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilib, o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarib atmosfera va suv resurslarining ifloslanishi dolzarb muammo bo'lmoqda. Orolbo'yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'simlik, hashorat, tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, sistematikasi, morfologiyasi, fenologiyasi.

Аннотация: В статье рассматривается, как высыхание Аральского моря стало эпицентром экологической катастрофы не только нашего региона, но и мирового масштаба, а также как в результате негативного воздействия деятельности человека происходят существенные изменения в окружающей среде. В результате изменения климата во всех широтах планеты ощущаются различные стихийные бедствия, сокращаются площади лесов, а загрязнение атмосферы и водных ресурсов становится актуальной проблемой. Обеспечение экологической устойчивости, рационального использования природных ресурсов, цифровизации и внедрения инновационных подходов в регионе Приаралья.

Ключевые слово: распространение, биоэкологические характеристики, систематика, морфология, фенология.

Abstract: The article examines how the drying up of the Aral Sea has become the epicenter of an environmental disaster not only in our region, but also on a global scale, and how significant changes in the environment are occurring as a result of the negative impact of human activity. As a result of climate change, various natural disasters are felt in all latitudes of the planet, forest areas are shrinking, and pollution of the atmosphere and water resources is becoming an urgent problem. Ensuring environmental sustainability, rational use of natural resources, digitalization and the introduction of innovative approaches in the Aral Sea region.

Key words: distribution, bioecological characteristics, systematics, morphology, phenology.

Kirish. Hozirgi kunda Orol dengizi qurishi nafaqat mintaqamiz, balki global darajadagi ekologik ofat markaziga aylangan bo'lib, inson faoliyatining salbiy tasiri natijasida atrof muhitda sezilarli darajada o'zgarishlar ro'y bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-yanvardagi PQ-4960-sonli “O'rmon xo'jaligi sohasida ilim-fanni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida “O'rmon xo'jaligi va o'simliklarni himoya qilish fanlari” yo'nalishida chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha vazifa va topshiriqlar berilgan. [1; 2].

Coleopteralar yoki qo'ng'izlar - bu hasharotlar turkumi bo'lib, ularning vakillari oldingi qanotlarini qattiq og'ir sklerotizatsiyalangan yoki terisimon elytraga o'zgartirishi, ventilyatsiyasiz, membranali orqa qanotlarini saqlab qolish bilan ajralib turadi, ular parvoz uchun xizmat qiladi va dam olish paytida elytra ostida buklanadi. Qo'ng'izning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi ekinlari, daraxt va oziq-ovqat mahsulotlarining zararkunandasi. Sug'orma dehqonchilik mintaqasida foydali qo'ng'iz (xonqizi qo'ng'izlari (*Coccinellidae*), sassiq qo'ng'izlar (*Carabidae*) ham yashaydi. Go'ngxo'r qo'ng'iz (*Melolontha*), o'limtikxo'r qo'ng'iz kabi turlari chirindi va o'limtiklar bilan oziqlanib, tabiyatda sanitar vazifasini o'taydi.[4]

2025-yil may oyida Mo'ynoq tumani hududdagi Janubiy Orol qum saksovlzorlarda uchraydigan xasharotlarni monitoring kuzatuv ishlari olib borildi. Kuzatuv davomida Moynoq tumanida may oyining kundizgi havo harorati o'rtacha +24°S issiqlikda, shamol tezligi 7,3 m/s, namlik mikdori 48% ni tashkil etdi. Orolqumdagi harorat namlik va shamol tezligi aniqlangandan so'ng, saksovl o'simligining yashil qismi yani yer ustki bo'limi o'rganildi va monitoring kuzatuv ishlari olib borildi. Bundan maqsad shundaki boshqa zararkunanda hashoratlarning tarqalgan turlarini aniqlash, bu turlardan namunalar olish shu qatorda hashorat qaysi turga mansubligini aniqlash, vaziyatni o'rganish, holatni tekshirish hisoblanadi. Biz tadqiqot ishlari mobaynida tekshirish ishlari olib bordik. Natijada o'simlikda qanday turlar tarqalganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.[3].



Tadqoqotlarimiz davomida qo'ng'izlarning tarqailishi, bioekologik xususiyatlari o'rganildi. Bu qo'ng'izlarning tur tarkibini o'rganish mobaynida, chet el adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, saksovul o'simligida *Julodis euphratica karelinii Mannerheim 1837* nomi bilan ataluvchi qo'ng'iz tur va'killarining yani qo'ng'izning erkak voyaga yetgan yetuk zoti va urg'ochi voyaga yetgan yetuk zoti tarqalganligining guvohi bo'ldik. Bu tur ingliz tilidan tarjima qilingan. Shuningdek, oltingugurtli marvarid qo'ng'izi yoki evfratik marvarid qo'ng'izi sifatida ham tanilgan, *Buprestidae* oilasi, *Triba julodini* kichik oilasiga mansub qo'ng'iz turi. Uning tana uzunligi o'lchami 29 dan 31 mm gacha. Bu qo'ng'izlarning lichinkalari akas daraxtlarida yashaydi, ular qo'g'irchoqlashdan oldin bir yil vaqt o'tkazadilar va erta bahorda juftlashish uchun paydo bo'ladilar. Lichinka davri taxminan 9 oy davom etadi, kattalar esa 3 oy yashaydi. Qo'ng'izning tuxumdan kattalargacha va o'limigacha bo'lgan umumiy umri taxminan bir yil. Yovvoyi gul nektarlari bilan oziqlanadi.



1.



2.

1-rasm. 1- *Julodis euphratica karelinii Mannerheim 1837*. 2-Mo'ynoq tumani Orolqum saksovul o'simligida uchragan turi

Qo'ng'izning tashqi ko'rinishini o'lchashda chizg'ich yordamida uzunligi 4- sm, eni 1,3- 1,5 sm, mo'ylovi – 10 bo'g'inli, qorin bo'limi 3,5 sm ekanligi aniqlandi.

Dala sharoitidan turli xil hashorat namunalarini kolleksiya qilish maqsadida olib kelingan materiallar O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali «Qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlari va dala taxlillari» laboratoriyasiga *B.tryxalicerus*, *Lepidoptera*, *Coleoptera* va *Coccinellidae* turlarini o'rganish uchun olib kelindi.

Hulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, bizning sharoitimizda uchramaydigan qo'ng'iz turlarini taqqoslaganda chet ellik ilmiy ishlaridan keltirilgan ma'lumotlariga asoslanib, ikkala tur bir-biriga morfologik jihatdan o'xshashligi o'rganildi. Bunda *Julodis euphratica karelinii Mannerheim 1837* qo'ng'izi qoramtir rangda bo'lib, Orolqum hududida uchraydigan qo'ng'iz turlari esa to'q yashil rangda. Har ikkala tur ham bir turkumga mansubligi jihatdan bir hil ekanligi bilan aniqlandi.

“JASLARDĪŃ ILIMDE TUTQAN ORNĪ” atamasındađı XV respublikalıq ilimiy teoriyalıq konferenciya

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida gapirgan nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 11-noyabrdagi “2020-2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Z.I.Qasimov, A.R.Anorboev, O.A.Sulaymonov, I.Hamroev, A.Mambetnazarov va boshq. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti / O‘simliklar zararli organizmlarni rivojlanishini bashorat qilishda kuzgi va bahorgi kuzatuvlar o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma (metodologiya) Toshkent 2024. -6-10 B.
4. „Qo‘ng‘izlar“, [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi \(Q-harfi\)](#). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.